



Sifat menejmenti tizimi

Tolipov Sunnatilla

GxP

Zaruramaliyotlar markazi

PHARMACEUTICAL
MEDICINE

- **Bu o'zi nima?**
- umumiylar tizimni sifatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tuzilma, mas'uliyat va majburiyatlar, jarayonlar va resurslar to'plami.
- ma'lum bir tarzda hujjatlashtirilgan korxona ichidagi ish va o'zaro munosabatlari qoidalari to'plami.
- ishni tashkil etishda bir xil yondashuv, yozilgan qoidaga amal qilish va amal qilish kerak bo'lgan qoidani yozish.
- ishni ipidan-ignasigacha, vujudga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan jaroyonlarni aniqlash va ularni tizimli tashkil etish.



Maqsadlari:


- Mijozlarning talablarini aniqlash va ularning talabini qondirish.
- Bevosita va bilvosita sifatga ta'sir qiluvchi o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlarni tizimli boshqarish.
- Tizimni tashkil etish va uning ishlashini ta'minlash.

Vazifalari:

- Jarayonlarni aniqlash va ularni amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni belgilash.
- Barcha xodimlar malakasini oshirish.
- Vakolatli shaxsni tayinlash, jaroyonlarga javobgar shaxslarni belgilash, ular orasida mas'uliyat va vakolatlarni tizimli taqsimlash.

Sifat menejmenti tizimi


Maqsad va vazifalari



Afzalliklari:

- korxona boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish;
- boshqaruv xarajatlarini kamaytirish;
- jarayonlar sifatini oshirish;
- mahsulot va ish sifatini oshirish;
- xodimlarning korxona maqsad va vazifalarini tushunishlarini yaxshilash;
- xodimlarni rag'batlantirish darajasini va mehnat intizomini oshirish, o'z natijalari uchun mas'uliyatni oshirish va shu bilan mehnat unumdarligini oshirish;
- xodimlarni sifatli ishga jalb qilish, ularning sifat g'oyasiga sodiqligini oshirish.

Sifat menejmenti tizimi



Tashkilotning kattaligidan qat'iy nazar, ISO 9001 sifat menejmenti tizimi barcha operatsion jarayonlaringizni eng yaxshi tarzda kuzatib borish va boshqarishga yordam beradi.

ISO 9001, dunyodagi eng keng tarqalgan sifat menejmenti standarti, tashkilotlarga xizmat ko'rsatish va ish faoliyatini boshqarish sifatini yaxshilashga va doimiylikni ta'minlashga imkon beradi.

Sifat tizimi barcha sohalarda qo'llanishi mumkin, davlat boshqaruvidan boshlab to bir kichik bir ishlab chiqarish korxonasi gacha:

- Adliya vazirligi ISO 9001:2015
- Davlat test markazining ISO 9001:2015
- O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari ISO 9001:2015
- “Hamkorbank” ATB ISO 9001:2015
- Toshkent shahar Yakkasaroy tumani hokimiyati boshqaruv siyosati ISO 9001:2015


Sifat menejmenti tizimi

misollarda



Asosiy qoidalar:

- Sifat - ehtiyojlarni mos ravishda qondirish imkonini beruvchi mahsulot xususiyatlarining yig'indisi;
- Non - yumshoq, tiniq va mazali,
- Smartfon - bardoshli, funktsional, yuqori o'lchamli kamera bilan jihozlangan,
- Avtomashina - qulay, yo'l tanlamas, xavfsizlikni ta'minlab bera oladigan,
- Dori-darmonlar - bu maxsus mahsulot!



Sifat menejmenti tizimi

Farmasevtik sifat menedjmenti tizimi misolida






Farmasevtika sifat menejmenti tizimi


Normativ xujjatlar


Normativ xujjatlar

- FARMATSEVTIKA SOHASIGA ZARUR AMALIYOTLAR (GXP) TALABALARINI JORIY ETISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORATADBIRLAR TO‘G‘RISIDA **18.09.2019** dan **VMQ-788**
- FARMATSEVTIKA SANOATIDA ZARUR AMALIYOTLAR (GXP) TALABALARINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORATADBIRLAR TO‘G‘RISIDA **03.08.2021** dan **VMQ-486**
- Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti – **GMP O‘zDSt 2766:2018**
- Yaxshi dorixona amaliyoti – **GPP O‘zDSt 3127:2016**
- Yahshi distribyutorlik amaliyoti – **GDP O‘zDSt 2764:2018**
- Yahshi saqlash amaliyoti – **GSP O‘zDSt 2763:2018**
- Yahshi klinik amaliyoti – **GCP O‘zDSt 2765:2018**
- Yaxshi laboratoriya amaliyoti – **GLP O‘zDSt 2762:2018**



Sifat tizimlarining bog'liqligi





Farmasevtika sifat menejmenti tizimi

GPP – yahshi dorixona amaliyoti misolida



Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2016



Yaxshi dorixona amaliyoti (GPP) – bu jahoning barcha rivojlangan mamlakatlaridagi dorixonalar tomonidan amal qiladigan xalqaro standartdir.

“Yaxshi dorixona amaliyoti” (GPP) atamasi birinchi bor 1991-yilda farmatsevtika bozorining chakana savdo tarmoqlari rivojlangan 10 ta davlatning yetakchi ekspertlari yig‘ilishida kiritildi.

U farmatsevtlar tomonidan aholiga ko‘rsatiladigan farmatsevtika xizmatlarining tegishli sifatini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan Qoidalar bo‘lib, dorixonalar kundalik faoliyatining barcha masalalari va jihatlarini qamrab olishi kerak.

1993-yilda (GPP) yo‘riqnomasi Xalqaro farmatsevtika federatsiyasi (FIPP) tomonidan qabul qilingan va JSST tomonidan har bir mamlakatning xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy standartlarini yaratish uchun asos sifatida tasdiqlangan.

Dorixona tomonidan “Yaxshi dorixona amaliyoti” (GPP) qoidalaring joriy etilganligi, vakolatli organ tomonidan beriladigan “Yaxshi dorixona amaliyoti” (GPP) `z DSt 3127:2016 Davlat standarti talablariga muvofiqlik sertifikati bilan tasdiqlanadi.

Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Mazkur standart aholiga farmatsevtik xizmatlar ko‘rsatish va dori vositalari, tibbiy buyumlarni sifatli taqdim etish bilan bog‘liq kompleks talablarni, shuningdek ularni optimal qo‘llash maqsadida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni ifodalaydi.



Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O`z DSt 3127:2018



Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni me'yoriy hujjatlarga muvofiq, ularning sifati va xavfsizligini ta'minlovchi sharoitlarda saqlanishi kerak

Dorixona
omborxonasida
mahsulotlarni qabul
qilish uchun alohida joy
bo'lishi

Dorixonaga jismoniy
shaxslar tomonidan
sotib olingan dori
vositalarini qaytarib
olish taqiqlanadi

**Qabul qilish,
saqlash va
realizatsiya
qilish**

Sifatsiz, kontrafakt va
kontrabanda yo'lli bilan
olib kirilgan dori
vositalari va tibbiy
buyumlarni saqlash va
realizatsiya qilish
taqiqlanadi


Dorixona mutaxassislari
tomonidan
iste'molchilarga
ikkilamchi o'rami
buzilgan holda berilishi
mumkin, lekin birlamchi
o'rami buzilgan holda
dori vositasi berish
taqiqlanadi

Dorixonada retsept
asosida beriladigan dori
vositalari retseptda
yo'zilgan dori
vositarining miqdori va
dozasiga mos kelishi
lozim

Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Hodimlar kasalliklar profilaktikasi va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish – dori vositalarini ratsional qo‘llash bo‘yicha yaxshi dorixona amaliyoti talablarini bajarish aholini sanitariyaga oid masalalarda maslahat berishi kerak




Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Hujjatlar shakli va mazmuni, uning turi va toifasiga qarab, tashkilot rahbari tomonidan belgilangan tartibda me'yorlashtiriladi



Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Dorixonaning ish sifatiga tas’ir etuvchi barcha jarayonlar uchun standart operasion protseduralar (SOP) tuzilishi kerak



Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Dorixonaning ish sifatiga tas’ir etuvchi barcha jarayonlar uchun standart operasion protseduralar (SOP) tuzilishi kerak

Dorixonada doimiy ravishda o‘z-o‘zini nazorat qilish turishi kerak

Tavsiyalarni bajarilishi va ularning samaradorligi kelgusidagi tekshiruvlarda nazorat qilinadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish

O‘z-o‘zini nazorat qilish dasturi minimal va bir qolipdag‘i namunaviy standart operasion protseduralar (SOP) ko‘rinishida ishlab chiqiladi.

Talablarni bajarilishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha yo‘nalishlarni aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Mustaqil shaxs yoki dorixonadagi mavjud xodimlardan tuzilgan mustaqil guruhlar tomonidan o’tkaziladi

Yaxshi dorixona amaliyoti – GPP O‘z DSt 3127:2018



Bu tayyor dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini kafolatlash ularni ishlatalish, saqlash, realizatsiya qilish bo'yicha xodimlarni o'qitish, o'z-o'zini nazorat qilishni o'tkazish, hujjatlarni yuritish va saqlash chora tadbirlarini tashkillashtirish jamlanmasidir

